

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD 04/30.09.2020.Tib.122.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**NAZAROV IBROXIM RUSTAMOVICH**

**COVID -19 DA SON SUYAGI BOSHCHASI ASEPTIK NEKROZINING  
KLINIK VA PATOMORFOLOGIK JIHATLARI**

**14.00.15 – Patologik anatomiya**

**tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Nazarov Ibroxim Rustamovich**

COVID -19 da son suyagi boshchasi aseptik nekrozining klinik va patomorfologik jihatlari ..... 3

**Назаров Иброхим Рустамович**

Клинические и патоморфологические аспекты асептического некроза головки бедренной кости при COVID-19 ..... 25

**Nazarov Ibrohim Rustamovich**

Clinical and pathomorphological aspects of aseptic necrosis of the femoral head during COVID-19..... 51

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 57

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD 04/30.09.2020.Tib.122.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**NAZAROV IBROXIM RUSTAMOVICH**

**COVID -19 DA SON SUYAGI BOSHCHASI ASEPTIK NEKROZINING  
KLINIK VA PATOMORFOLOGIK JIHLTLARI**

**14.00.15 – Patologik anatomiya**

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2024**

**Falsafa doktori PhD dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Tib3575 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz(rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.fjsti.uz](http://www.fjsti.uz)) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Maxkamov Nosirjon Jo‘rayevich**  
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Xasanova Muxarrama Almaredanovna**  
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

**Reyimnazarova Gulsara Jamalovna.**  
tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat tibbiyot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti huzuridagi PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Turon ko‘chasi, 2-uy. Tel./faks: (+99873) 245-59-07, faks: (99873) 245-59-07 e-mail: [info@fjsti.uz](mailto:info@fjsti.uz)).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Turon ko‘chasi, 2-uy. Tel/faks: (+99895) 400-01-14, faks: (99873) 245-59-07 e-mail: [info@fjsti.uz](mailto:info@fjsti.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil« \_\_ \_ » \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024-yil « \_\_ \_ » \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - raqamli reestr bayonnomasi).

**A.A. Sidikov**

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

**S.A.Shakirov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash kotibi, tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Sh.I.Ro‘ziyev**

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

## **KIRISH (tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Mavzuning dolzarbligi.** Dunyo bo'ylab koronavirus infeksiyasining tayanch-harakat tizimiga ta'sirini o'tkir davrida va keyingi doimiy uzoq muddatli davrda ham o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar faol olib borilmoqda (Wu Y. M. va boshq. 2023). COVID-19 tananing barcha to'qimalariga ta'sir etib, bu ham erta, ham kechki asoratlarni keltirib chiqaradi. Son suyagi boshchasi tananing asosiy tayanch anatomik tuzilmasi hisoblanib, tanani erkin harakatlanishini ta'minlaydi va tanadagi yukni oyoqlarga teng taqsimlab o'tkazishda ishtirok etadi. Abramov A. A. va boshqalarning ma'lumotlariga ko'ra (2023), son suyagi boshchasining notravmatik osteonekroz holatlari sezilarli darajada oshgan.

Jahonda so'nggi 3-4 yil ichida Evropa mamlakatlarida son suyagi boshchasining degenerativ kasalliklari soni 23,7 millionga yetdi (N. D. Amrilloevich 2023), bunday kasalliklarning aksariyati 40-65 yoshdagi odamlarda uchraydi va suyak to'qimalarining ossifikatsiyasi bilan birga keladi. Kanada, Shvetsiya va Avstriyadagi tibbiy muassasalardan olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu tashxis birlamchi kasallanish holatlari orasida 2,8% dan 6% gacha yetadi. 2021-yilda son suyagi boshchasining aseptik nekrozi holatlari 28,9 foizga oshgani qayd etildi, bu artrogen asoratlarni o'rganishga yordam berdi. Son suyagi boshchasining aseptik osteonekrozi tibbiy yordamga murojaat qilish sabablari orasida ikkinchi o'rinda turadi va bu borada shifoxonaga yotqizish bo'yicha barcha holatlarning uchdan bir qismini tashkil qiladi (Muxitdinov Sh.Sh., Jahonov O. O. 2023). Ushbu ma'lumotlar erta tashxis qo'yish zarurligini ta'kidlaydi, chunki kasallik asosan yosh va o'rta yoshdagi insonlarda uchraydi, o'z vaqtida davolanmasa, 80% hollarda son suyagi boshchasining ezilishi va deformatsiyasi kuzatiladi. (Orel A. m, 2022). Jumladan, harakat tayanch tizimidan son suyagi boshchasi, son, katta boldir, elka suyaklarini yuqori va distal metaepifiz qismi, oshiq suyagi, umurtqa pog'onasini tana qismlarida ham aseptik (avaskular) osteonekroz keltirib chiqardi. Ayniqsa, o'rta yoshdagi insonlar ko'plab kasallanishi, oqibatda nogironlikka olib kelishi ayanchli holatdir. Ushbu holatlarni hisobga olgan holda, koronavirus infeksiyasidan keyin tayanch harakat tizimining surunkali shikastlanishi xususiyatlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Son suyagi boshchasining aseptik osteonekrozi tayanch-harakat tizimining eng keng tarqalgan kasalliklaridan biri bo'lib, bunday patologiyalarning 12-20 foizini tashkil qiladi. Kasallik ko'pincha eng faol ijtimoiy guruhda bo'lgan 30-50 yoshdagi insonlarga ta'sir qiladi (Irismetov M. E., Mahmudov A. A., 2024).

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish, shu jumladan, tayanch-harakat tizimida koronavirus infeksiyasining asoratlarni oldini olish va davolash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. COVID-19 infeksiyasi natijasida rivojlanadigan son suyagi boshchasining aseptik nekrozining klinik-instrumental, patomorfologik va morfometrik ko'rsatkichlari yetarlicha takomillashtirilmagan. So'nggi 10-15 yil ichida son suyagi

boshchasining degenerativ kasalliklari soni sezilarli darajada oshdi. Ayniqsa, mehnatga layoqatli yoshdagi odamlarda, bu ko‘pincha aholining nogironligi va hayot turmish tarzi sifatining pasayishiga olib keladi. Bu esa ushbu jiddiy patologiyani tashxislash, davolash va oldini olish masalalarini nafaqat tibbiy, balki katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim davlat vazifasiga aylantiradi (Jumanov Z. E., Xudayberganov S. T., 2024).

Yuqoridagi ma'lumotlarni hisobga olgan holda, koronavirus infeksiyasidan so‘ng kelib chiqqan tayanch-harakat tizimining surunkali shikastlanishining xususiyatlarini o‘rganish dolzarb vazifa ekanligi ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»<sup>1</sup>, 2018-yil 7-dekabrda PF–5590-sonli “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi 2017-yil 16-martidagi PF-4985-son “Shoshilinch tibbiy yordam faoliyati tizimini tashkil etish va moddiy-texnik bazani kelgusida mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni<sup>2</sup>, 2017-yil 20-iyundagi PQ–3071-sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga 2017–2021-yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 18-dekabrda PQ–4063-sonli “Yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va aholini jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VI. “Tibbiyot va farmakologiya” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Uzoq vaqtlardan beri son suyagi boshchasining aseptik (avaskulyar) nekrozi (SSBAN) suyak to‘qimalarida qon ta‘minoti buzilishi va uning keyingi orinlarda yemirilishi bilan bog‘liq jiddiy ortopedik kasallik sifatida o‘rganilmoqda. COVID-19 pandemiyasidan oldin SSBAN kortikosteroidlardan uzoq muddatli foydalanish, spirtli ichimliklarni suiste‘mol qilish, travma va autoimmun kasalliklar kabi xavf omillari kontekstida yaxshi o‘rganilgan (Mont M. A. va boshq., 2006; Mankin H.J., 1992). Biroq, COVID-19 paydo bo‘lishi bilan ushbu kasallikning SARS-CoV-2 virusi infeksiyasi bilan bog‘liqligiga qiziqish ortmoqda.

Biroq, jahon adabiyotida COVID-19 virusli infeksiyadan so‘ng kelib chiqqan yallig‘lanish va qon tomir trombozining aseptik nekroz rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkinligi haqida hali ham yetarlicha ma‘lumotlar yo‘q.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son "2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi 2017 yil 16 martidagi PF-4985-son «Shoshilinch tibbiy yordam foyliyatini tashkil etish va moddiy-texnik bazani kelgusida mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, COVID-19 hastaligini davolashda ayniqsa kortikosteroid terapiyasini olgan bemorlarda giperkoagulyatsiya va qon tomirlarining shikastlanishiga olib keladigan mexanizmlar SSBAN rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi (Zhao D. W. va boshq., 2021; Liang L., 2022). Ushbu ishlar og'ir COVID-19 holatlarini davolash uchun keng qo'llaniladigan kortikosteroidlardan foydalanish SSBAN rivojlanish xavfini sezilarli darajada oshirishini ta'kidlaydi, bu esa ushbu yo'nalishda keyingi tadqiqotlar otkazish zarurligini ko'rsatadi (Yue D. va boshq., 2021).

Qo'shma Shtatlar va Evropada olimlar, COVID-19 va SSBAN o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga katta e'tibor berishmoqda. Bir qator nashrlar patologiyani gipoksiya, giperkoagulyatsiya va yallig'lanish reaksiyalari kabi virusning tizimli asoratlari bilan bog'laydi, bu qon tomirlarining shikastlanishini kuchaytirishi va suyak nekroziga olib kelishi mumkin (Santos D. va boshq., 2021; Mera M.M. et al., 2021). Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, uzoq vaqt davomida COVID-19 dan keyingi sindromi bo'lgan bemorlarda qon tomir va immun buzilishlari tufayli SSBAN rivojlanish xavfi ortadi (Fang X., 2022).

Markaziy Osiyoda, shu jumladan Qozog'iston va O'zbekistonda COVID-19 fonida son suyagi boshchasining aseptik nekrozini o'rganish dastlabki bosqichda. Shunga qaramay, so'nggi yillarda COVID-19 bilan kasallangan bemorlarda, ayniqsa uzoq muddatli steroid terapiyasida bo'lgan bemorlarda SSBAN holatlarining ko'payishini qayd etuvchi ishlar paydo bo'lmoqda (Ashirmatov A., 2023). O'zbekistonda ushbu asoratning klinik va morfologik jihatlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda, bunda nogironlik xavfini kamaytirish uchun erta tashxis qo'yish va profilaktika choralarini ishlab chiqish zarurligiga e'tibor qaratilmoqda (Karimov B. S. 2023).

Shunday qilib, hozirgi vaqtda COVID-19 da son suyagi boshchasining aseptik nekrozi faol o'rganilayotgan muammo hisoblanadi, ammo uning patomorfologik va klinik jihatlarini diagnostika va davolashni yaxshilash uchun qo'shimcha chuqur tadqiqotlarni talab qiladi. Bu esa ushbu kasalliklarni qiyosiy baholash va davolashning yangi usullarini ishlab chiqish yondashuvlarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat tibbiyot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №005.01.1500216 "Inson va tajriba hayvonlar organizmi hayot faoliyati ko'rsatkichlarining har xil patologik omillar ta'siridagi funksional, metabolik va struktur o'zgarishlarning o'ziga xosligi va ularni korreksiyalash yo'llari, hamda ekspert baholashning yangi imkoniyatlari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan (2019-2023 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi:** COVID -19 infeksiyasida son suyak boshchasining aseptik nekrozining klinik-instrumental, patomorfologik va morfometrik ko'rsatkichlari haqidagi ma'lumotlarni takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

COVID-19 infeksiyasidan asoratlangan aseptik nekroz kasalligida son suyagi boshchasini makroskopik o'zgarishlarini tahlil qilish;

COVID-19 infeksiyasida son suyagi boshchasi metafiz va apofiz qismlarida rivojlangan patomorfologik o'zgarishlarni mikroskopik jihatdan o'rganish;

COVID-19 asorati aseptik nekrozda son suyak boshchasini qon bilan ta'minlovchi arteriya va venoz tomirlarning morfologik belgilarini o'rganish;

COVID-19 infeksiyasida son suyagi boshchasi aseptik nekrozida rivojlangan morfologik o'zgarishlarida to'qima tuzilmalarini morfometrik ko'rsatkichlarini o'rganish.

**Tadqiqotning ob'yekti** son suyagi boshchasini aseptik nekrozi (COVID - 19) kasalliklari bo'yicha o'tkazilgan jarrohlik amaliyotlarida olingan 91 ta biopsiya materiallari va nazorat guruhi sifatida boshqa kasalliklar ta'sirida zararlangan, tashrihda olingan 16 ta son suyagi boshchasi.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida son suyagi avaskulyar nekrozi bilan bemorlarning tekshirish va davolash natijalari, son suyagi boshchasi, quymich kosasi tom qismi biopsiyasi, son suyagi boshchasi yumaloq bog'lami, bo'g'im kapsulasi, boshqa kasalliklar ta'sirida zararlangan tashrihda olingan 16 ta son suyagi boshchasi va bo'g'im yuzasi suyak bo'laklari materiallari olingan.

**Tadqiqot usullari:**

- klinik-anamnestik va laboratoriya ma'lumotlarini tahlil qilish;
- struktur-funksional baholash;
- umumiy morfologik o'rganish;
- gistokimyoviy usullar: van Gizon usuli bo'yicha biriktiruvchi to'qimalarni, PAS reaksiyasi bilan mukopolisaxaridlarni aniqlash, kalsifikatsiya belgilarini aniqlash usuli;
- konfokal multipleksli morfometrik tekshiruv;
- statistik ishlov berish.

**Tadqiqotning Ilmiy yangiligi:**

SARS-CoV-2 bilan kasallangan bemorlarni son suyaklari boshchasi bo'g'im yuzasida makroskopik jihatdan demarkatsion chiziqlar bilan chegaralangan oqish rangli o'choq paydo bo'lishi, g'ovak suyak qismida dastlab oq-sariq rangli nekroz, ma'lum vaqt o'tishi bilan sekvestrlar va kistoz bo'shliqlar, ikkilamchi o'zgarishlar ko'rinishida esa, dag'al tolali ko'rinishdagi reparativ regeneratsiyaning ossifikatsiya o'choqlari paydo bo'lishi bilan davom etishi aniqlangan;

son suyak boshchasi aseptik nekrozida morfologik jihatdan, dastlab g'ovak suyakning yuza qismlari nekrozi, kompakt suyak qatlami yorilishi, nekroz o'chog'ining chuqurlashishi va rezorbsiyasi, sekvestrlarning yuzaga kelishi, kistoz bo'shliqlarning paydo bo'lishi isbotlangan;

SARS-CoV-2 ta'sirida son suyak boshchasining arteriyalarini morfologik jihatdan shikastlanishi, asosan endoteliit, mikroangiopatiya, mikrotrombozlar rivojlanishiga olib kelganligi oqibatida, suyak to'qimasida ishemiya va aseptik nekrozni rivojlantirishi isbotlangan.

son suyagi boshchasi aseptik nekrozida rivojlangan to'qima tuzilmalari tarkibiy qismlarini egallagan maydonlarini 5/2 qismni tashkil etganligi, 46% sohasida nekroz o'choqlari aniqlangan.



**Tadqiqotning amaliy natijalari.** Son suyagi boshchasi, bo'yni va gialin qavati, xususiyl boylamining me'yoriy gistologik tuzilishi haqidagi ma'lumotlar morfologlar, gistologlar, anatomlar va travmatolog ortopedlar ish faoliyatida nazariy va amaliy bilimlarini oshirishga xizmat qiladi.

Son suyagi nekrozi degenerativ, distrofik va destruktiv o'zgarishlar suyak to'qimasining barcha struktur elementlarini qamrab olganligi, gialin qavatida bu o'zgarishlarga yallig'lanish jarayoni qo'shilganligi, natijada tolali tuzilmalarining nekrobiozga uchrashi, yorilishi va suvsizlangan, tolalari gomogenlashib, nekrozlangan, oraliq moddasi shish va kalsinozga uchragan nekroz tashqariga gialin to'qimaga chiqqanligi haqidagi ma'lumotlar bu kasalliklarni davolashda morfologik asos bo'ladi.

Son suyagi aseptik nekrozi rivojlanishining dastlabki davrida suyak atrofidagi tashqi parda va yumshoq to'qimalarda qon tomirlarining torayishi va trombozi oqibatida nekrobiotik o'zgarishlar rivojlanadi. Son suyagi tarkibida dastlab oraliq osteoid modda nekrobiozlanib, destruksiyalangan osteoblast, osteoklast va fibroblastlar joylashgan bo'shliqlar paydo qiladi, keyin suyakning qattiq ustunlarida distrofik va destruktiv o'zgarishlar rivojlanishi oqibatida nekrobiotik o'zgarishlar paydo bo'ladi. Aseptik nekrozlanish jarayonining III-davri, chin nekroz o'choqlarining paydo bo'lish davrida qattiq suyak ustunlaridan sekvestrlar, oraliq osteoid tuzilmalardan strukturasis dendrit paydo bo'lishi aniqlandi. Hulosa qilib shuni aytish mumkinki, albatta kasalliklarni to'liq tashxislash davolash samarasini oshirishga olib keladi, bu esa halqimizni ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishi va ravnaq topishi uchun bajarilgan vazifadir.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ishda qo'llanilgan nazariy yondashuv va usullar, olib borilgan tekshiruvlarning uslubiy jihatdan to'g'riligi, tekshirilgan bemorlar sonining etarliligi, tadqiqotda qo'llanilgan zamonaviy o'zaro bir-birini to'ldiruvchi klinik-anamnestik, morfologik, morfometrik, gistokimyoviy, klinik, instrumental va statistik tadqiqot usullar yordamida ishlov berilganligi, shuningdek, son suyagi boshchasi avaskulyar nekrozining klinik-anamnestik va patomorfologik o'zgarishlarini takomillashtirishda xalqaro hamda mahalliy tajribalar bilan taqqoslangani, xulosa, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

#### **Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, COVID-19 bilan kasallangan bemorlarda son suyagi boshchasining barcha qismlarining morfometrik xususiyatlarini qiyosiy morfologik va zamonaviy diagnostika usullaridan foydalangan holda o'rganish, degenerativ-distrofik kasalliklarni aniq tashxislashga yordam beradi. Instrumental tadqiqotlar son suyagi boshchasining qon tomir trombozi patogenezi bo'yicha bilimlarni kengaytirishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, bo'ksa bo'g'imi degenerativ-distrofik kasalliklarning klinik, anamnestik va instrumental xususiyatlarini o'rganish samarali davolash usullarini ishlab chiqish, davolash algoritmini to'g'ri tahlil qilish va tanlash imkonini beradi. Dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillariga muvofiq qiyosiy diagnostikaning klinik va patomorfologik natijalari, davolanishni jahon darajasiga ko'tarishga imkon

beradi; SSBAN ning klinik, anamnestik va patomorfologik holatini qiyosiy baholash, ijobiy davolash usulini tanlash bemorlarning mehnat faoliyati samaradorligini 65% gacha oshirishga yordam beradi. COVID-19 sabab bo'lgan son suyagi boshchasi aseptik nekrozida to'qimalarining tuzilmalarida morfologik o'zgarishlar turlarini aniqlash ushbu kasallikni boshqa patologiyalaridan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi. Qiyosiy morfologik va zamonaviy usulda morfometrik ko'rinishlarini o'rganish, son boshchasining barcha qismlarining COVID -19 o'tkazgan bemorlar degenerativ-distrofik kasalliklarini to'g'ri tashxislash imkonini beradi;

#### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Son suyagi avaskulyar nekrozi prognozini yaxshilash uchun olingan ilmiy natijalarga ko'ra;

ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida "COVID-19 da son suyagi boshchasi aseptik nekrozining klinik va patomorfologik o'zgarishlari" uslubiy tavsiyanoma ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy texnik kengashining 2024-yil 25 sentyabrdagi 06/84-son xulosasiga ko'ra (ilmiy yangilikni boshqa sog'liqni saqlash muassasalariga joriy etish bo'yicha Andijon davlat tibbiyot institutining 2024-yil 29-fevraldagi 6i-18/u-sonli xati Sog'liqni saqlash vazirligiga taqdim etilgan).

**Birinchi ilmiy yangilik:** SARS-CoV-2 bilan kasallangan bemorlarni son suyaklari boshchasi bo'g'im yuzasida makroskopik jihatdan demarkatsion chiziqlar bilan chegaralangan oqish rangli o'choq paydo bo'lishi, g'ovak suyak qismida dastlab oq-sariq rangli nekroz, ma'lum vaqt o'tishi bilan sekvestrlar va kistoz bo'shliqlar, ikkilamchi o'zgarishlar ko'rinishida esa, dag'al tolali ko'rinishdagi reparativ regeneratsiyaning ossifikatsiya o'choqlari paydo bo'lishi bilan davom etishi aniqlanganligi Andijon viloyati travmatologiya va ortopediya shifoxonasi (15.03.2024-y.; №32), Namangan viloyati patologik anatomiya byurosi (18.03.2024-y.; №29), Namangan viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi buyrug'i (20.04.2024-y.; №48 A/F) hamda Andijon viloyati patologik anatomiya byurosida (16.03.2024-y.; №23) buyrug'i bilan amaliyotga joriy etilgan. Ijtimoiy samaradorligi: SSBAN kasalliklarining makroskopik holatini struktur-funksional tekshiruvlar bilan bir biriga solishtirma baholash natijasida turli usullarning ijobiysini tanlab olinishi bemorlar mehnat faoliyatini samarasini 65% gacha oshirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy samaradorligi: tavsiya etilgan SSBAN erta aniqlash bo'yicha tashxislash usuli va davolash taktikasini tanlash klinik-patomorfologik solishtirma asoslash natijalarini olgan holda iqtisodiy hisoblash mumkin, kasallikni kechishida an'anaviy usullar (UASH, travmatolog ko'rigi, MRT, rentgen, EKG, qon va peshob tahlili va boshqalar) bilan jarrohlik amaliyotidagi harajatlarni, tashrihsiz davolanishda 55% gacha tejalishiga olib keladi. Xulosa: ushbu qo'llanma dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillariga mos makroskopik hulosa klinik va patomorfologik solishtirma tashxislash natijalari, davolashni jahon darajasiga ko'tarishga imkon beradi;

**Ikkinchi ilmiy yangilik:** Son suyak boshchasi aseptik nekrozida morfologik jihatdan, dastlab g'ovak suyakning yuza qismlari nekrozi, kompakt

suyak qatlami yorilishi, nekrozi o'chog'ining chuqurlashishi, nekroz o'choqlarining rezorbsiyasi, sekvestrlarning yuzaga kelishi, kistoz bo'shliqlarning paydo bo'lishi isbotlanganligi Andijon viloyati travmatologiya va ortopediya shifoxonasi (15.03.2024-y.; №32), Namangan viloyati patologik anatomiya byurosi (18.03.2024-y.; №29), Namangan viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi (20.04.2024-y.; №48 A/F) buyrug'i hamda Andijon viloyati patologik anatomiya byurosida (16.03.2024-y.; №23) buyrug'i bilan amaliyotga joriy etilgan.

Ijtimoiy samaradorligi: taklif etilgan patomorfologik tashhishlash tartibi to'sson bo'g'imi degenerativ-distrofik kasalliklaridan son boshi avaskulyar nekrozi sonini kamaytirgan. Iqtisodiy samaradorligi: tavsiya etilgan SSBAN kasalligini aniqlash bo'yicha erta tashxislash taktikasini tanlash klinik-anamnestik natijalarini asosida morfologik jihatlarini hisobga olgan holda iqtisodiy samaradorlikni yuqoriligi 45% gacha mablag'lar tejalishi bilan izohlanadi. Xulosa: bunday SSBAN sohasidagi klinik morfologik xususiyatlarini to'liq o'rganib borilishi, klinitsistlar uchun kasallik kelib chiqish sabablarini 100% aniqlash, to'g'ri tahlil qilish va davolash algoritmini to'g'ri tanlanishiga imkon beradi;

**Uchinchi ilmiy yangilik:** SARS-CoV-2 ta'sirida son suyak boshchasining arteriyalarini morfologik jihatdan shikastlanishi, asosan endoteliit, mikroangiopatiya, mikrotrombozlar rivojlanishiga olib kelganligi oqibatida, suyak to'qimasida ishemiya va aseptik nekrozni rivojlantirishi isbotlanganligi Andijon viloyati travmatologiya ortopediya shifoxonasi (15.03.2024-y.; №32), Namangan viloyati patologik anatomiya byurosi (18.03.2024-y.; №29), Namangan viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi buyrug'i (20.04.2024-y.; №48 A/F) hamda Andijon viloyati patologik anatomiya byurosida (16.03.2024-y.; №23) buyrug'i bilan amaliyotga joriy etilgan. Ijtimoiy samaradorligi: tavsiya etilgan aseptik nekrozni rivojlanishiga qarab patomorfologik solishtirma tashhishlash uslublarning davolash amaliyotiga joriy etilishi natijasida, aholi orasida 65% gacha to'sson bo'g'imi avaskulyar nekroz kasalliklarining tashxislash va davolash samaradorligi oshirilishiga imkon bergan.

Tavsiya etilgan patomorfologik tashhishlash usulidan foydalangan holda muolajalarni o'tkazish vaqtini 1-1,5 barobar qisqartirib, 1 nafar bemor hisobiga budjet mablag'larini 950000 so'mga iqtisod qilish imkonini bergan; Iqtisodiy samaradorligi: aholini mehnat faoliyatidagi qatlamini davolashda 1 nafar bemor uchun uch kunlik statsionar davolanish (preyskurantga ko'ra 1-kunlik to'lov miqdori 145000-180000 so'mni tashkil etadi) dagi sarfini kamaytirgan. Statsionarda 12 kunlikdan 9 kunlikka qisqarishi, davo muolajalari byudjetdan bir kishi uchun (500000 so'mgacha) iqtisod qilingan. Hulusa: SSBAN kasalliklari hastalangan 1 nafar bemor hisobiga maqsadli tekshiruv va davolash paytida o'rtacha byudjet mablag'larini 150000 so'mga va byudjetdan tashqari mablag'larni 350000 so'mga iqtisod qilish imkonini bergan.

**To'rtinchi ilmiy yangilik:** Son suyagi boshchasi aseptik nekrozida rivojlangan to'qima tuzilmalari tarkibiy qismlarini egallagan maydonlarini 5/2 qismni tashkil etganligi, 46% sohasida nekroz o'choqlari aniqlanganligi Andijon

viloyati travmatologiya va ortopediya shifoxonasida (15.03.2024-y.; №32), Andijon viloyati patologik anatomiya byurosida (16.03.2024-y.; №23) buyrug‘i Namangan viloyati patologik anatomiya byurosida (18.03.2024-y.; №29), hamda Namangan viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi (20.04.2024-y.; №48 A/F) buyrug‘i bilan amaliyotiga joriy etilgan. Ijtimoiy samaradorligi: taklif etilgan son boshchasi suyagi COVID-19 dan keyingi aseptik nekrozini tashxislashda morfometrik ko‘rsatkichlari haqidagi ma’lumotlar bilan struktur-funksional va patomorfologik tahliliga individual yondashuv asosida davolanish muddatini qisqartirishga imkon bergan.

Iqtisodiy samaradorligi: aholini mehnat faoliyatidagi qatlamini davolashda 1 nafar bemor uchun uch kunlik statsionar davolanish (preyskurantga ko‘ra 1-kunlik to‘lov miqdori 298000–so‘mni tashkil etadi) dagi sarfini kamaytirgan. Statsionarda 12 kunlikdan 9 kunlikka qisqarishi, tashhishlash va davo muolajalari byudjetdan bir kishi uchun (894000 so‘mgacha) iqtisod qilingan. Hulosa: SSBAN kasalliklari hastalangan 1 nafar bemor hisobiga maqsadli klinik patomorfologik tekshiruv va davolash paytida o‘rtacha byudjet mablag‘larini 590000 so‘mga va byudjetdan tashqari mablag‘larni 304000 so‘mga iqtisod qilish imkonini bergan;

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 2 ta halqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining dissertasiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertasiyaning hajmi 118 betni tashkil etgan.


## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularni ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ishlarning aprobatsiyasi natijalari, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «Son suyagi boshchasi aseptik nekrozining COVID-19 o‘tkazgan bemorlarda klinik va patomorfologik o‘zgarishlari» deb nomlangan birinchi bobida COVID-19 ta’sirida son suyagi aseptik nekrozini yosh bolalik, o‘smirlik va katta yoshlik davridagi rivojlanishi va asoratlanishi bo‘yicha horijiy va mahalliy adabiyotlar sharhi keltirilgan. Hozirga qadar

SSBANni patologik o'zgarishlari; avaskulyar nekroz, son boshi hususiy boylami va gialin-tog'ay qismining etiopatologik o'zgarishlari masalasi oxirigacha hal qilinmagan hamda amaliyotchi patologik anatomiya shifokorlari va tadqiqotchilarning keng doirasidagi e'tiborni talab qiladi. Son suyagi boshchasi aseptik nekrozining klinik ko'rinishi va davrlari yoritilgan, shuningdek hal qilinmagan va aniqlashni talab qiluvchi jihatlari belgilangan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqotda foydalanilgan material va usullar**» deb nomlangan ikkinchi bobida material sifatida 2021-23 yillar davomida Andijon viloyati travmatologiya va ortopediya shifoxonasi va viloyat ko'p tarmoqli shifoxonasining travmatologiya-ortopediya bo'limlarida COVID -19 infeksiyasi oqibatida asoratlangan son suyak boshchasining aseptik nekroz kasalliklari bo'yicha o'tkazilgan jarrohlik amaliyotida olingan 91 ta biopsiya materiali va nazorat guruhi sifatida boshqa kasalliklar ta'sirida zararlangan tashrihda olingan 16 ta son suyagi boshchasi olindi. Biopsiya materialini kasallar yoshlari bo'yicha taqsimot qilinganda ma'lum bo'ldiki, jami 91 holatdan 51 tasi erkaklar bo'lib, ayollarda jami 40 holatda son suyak boshchasi aseptik nekrozi aniqlangan. Ulardan eng ko'p darajada kasallanganlar 30-39, 40-49 va 50-59 yoshli guruhlarda kuzatildi. Erkak va ayollarning yoshi o'tgan sari ushbu kasallikning uchrash darajasi kamayib borganligi aniqlandi (1- rasmga qarang).



**1- rasm. Bemorlarning yoshiga ko'ra taqsimlanishi % larda.**

Son suyak boshchasi aseptik nekroz jarayonida suyak boshchasini makroskopik darajada o'rganilganda ma'lum bo'ldiki, boshcha yuzasida har xil shaklga ega bo'lgan, ya'ni dumaloq, oval, ko'p tarmoqli, yulduzsimon oqargan rangli nekroz o'chog'ining mavjudligi topildi. Bunda boshcha suyak yuzasi kompakt qattiq suyak qatlami bilan qoplanganligi sababli, uning ostida nekroz rivojlangan bo'lsada, uning silliqdigi o'zgarmagan bo'lsada unda oq rangli nekroz o'chog'i mavjudligi isbotlandi. Nekroz o'chog'i atrofida suyak boshchasi yuzasi nisbatan to'q jigarrang bo'yalganligi kuzatiladi. Aseptik nekroz

rivojlanishida vaqt o'tishi bilan son suyak boshchasi yuzasida kompakt suyak qoplamasining yorilishi, rezorbsiyalanishi va osteoporozga uchrashi oqibatida boshcha yuzasida yoriqli nuqsonlar, kompakt suyak ko'chib tushganligidan yarali nuqsonlar paydo bo'lishi kuzatiladi. Son suyak boshchasi o'rtasidan temir arra bilan arralanib, ikkiga bo'lindi va suyakning yuzasidagi kompakt qoplamasi va epifizdagi g'ovak qismi o'rganildi. Deyarli barcha hollarda son suyak boshchasi epifizining g'ovak suyak qismida har xil kattalik va shakldagi rangi oq-sariq bo'lgan nekroz o'choqlari mavjudligi aniqlandi. Aksariyat hollarda son suyak boshchasi yuzasini qoplagan kompakt suyak qismida yorilishlar borligi aniqlandi. Son suyak boshcha ikkiga bo'lingandan keyin, ikkala yarmini ham yana 3-4-taga bo'lib, bo'lakchalarni 10 foizli fosfat buferda eritilgan formalinda 72 soat qotirildi.

Tadqiqot natijalarini statistik qayta ishlashda "Statistica for Windows 7,0" personal kompyuterining amaliy dastur paketidan foydalanildi.

Dissertatsiyaning « **COVID-19 infeksiyasi asorati sifatida son suyak boshchasi aseptik nekrozi bilan kasallanganlar klinik-anamnestik ma'lumotlari** » deb nomlangan uchinchi bobida asosiy guruhga kirgan 91 ta holatni O'zR SSV RPAM biopsiya tashxisot bo'limida oxirgi 3 yil (2021-2023 yy.) davomida ko'rilgan son suyagi boshchasi jarrohlik muolajasida olib tashlangan suyak fragmentlari biopsiya tekshiruv materiallaridan foydalanildi. Kasallarning klinik-laborator ma'lumotlari tahlili patogistologiyaga yo'llanma va bemorlarning travmatologiya bo'limida davolangandagi kasallik tarixi ma'lumotlaridan olindi. Anamnestik ma'lumotlar tahlili uchun, 51 nafar erkak va 40 nafar ayollarni yoshi, jinsi va yondosh kasalliklari tahlil qilinganda quyidagicha taqsimlandi; jami erkaklar 51 nafarni tashkil qilgan bo'lsa, ulardan 20-29 yoshlilarda kam uchragani, 30-39 dan 40-49 va 50-59 yoshlilarda ko'p uchragani kuzatildi. Ayol bemorlar soni erkaklarga nisbatan kamroq, ya'ni, 40 nafarni tashkil qilgan bo'lsa, ularda ham erkaklar yoshiga o'xshash yoshlarda kasallik ko'proq uchraganligi aniqlandi (1-jadvalga qarang).

Kasallik tarixi ma'lumotlari asosida SSAN kasalligining davomiyligi tahlil qilinganda shu holat aniqlandiki, erkaklarda o'rtacha davom etishi 14 oyni tashkil qildi. 20-29 yoshlilarda 17 oy, 39 yoshgacha bo'lgan nisbatan yosh bemorlarda kasallikning davomiyligi uncha uzoq bo'lmadi, ya'ni, 12 oy oraliq'ini tashkil qildi. Undan katta yoshdagi kasallarda esa xastalikning davomiyligi 40-49 yoshlilarda 18 oy bo'lsa, 50-59 yoshlilarda 11 oy, 60-69 yoshlilarda 13 oy, 70-79 yoshlilarda 14 oygachaligi tasdiqlandi (2-jadvalga qarang).

### 1-jadval

#### Erkak va ayol bemorlarning yoshi bo'yicha son suyagi boshchasi avaskulyar nekrozining uchrash ko'rsatkichi

Jinsi	yosh guruhlari						
	20-29	30-39	40-49	50-59	60-69	70-79	jami
erkak	3	9	14	13	7	5	51
ayol	2	7	13	10	5	3	40

## 2-jadval

### Erkak bemorlar yosh bo'yicha kasallik davomiyligi ko'rsatkichi, oylarda

Jinsi	yosh guruhlari						
	20-29	30-39	40-49	50-59	60-69	70-79	jami
erkak	3	9	14	13	7	5	51
Kasallik davomiyligi, oy	17	12	18	11	13	14	14

O'rganishda asosan Covid-19 dan keyingi son suyagi aseptik nekrozidagi o'zgarishiga e'tiborli bo'ldik, chunki statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, eng ko'p zararlanib shikastlanadigan soha son suyagi boshchasi yuqorigi old qismidir. Bu soha aynan son suyagi boshchasini tana og'irligi tushadigan tayanch qismi bo'lib, yoshi kattalarning kam harakatliligi va doimiy yuklamalar oqibatidir. Son suyagi sagital 60 ta, frontal 70 ta va gorizontal kesmalarida T1 va T2 tartibida oq qora rangdagi tomogramma bilan o'rganishga harakat qildik, buning uchun dastlab son suyagi me'yoriy holatini bilib olishimiz kerak. T1 va T2 tartibida son suyagi to'g'ri to'rtburchak shaklga ega bo'ladi, qabul qilinayotgan impul'slar tezligi tufayli son suyagining g'ovak va kortikal qavatlarini to'liq ko'rinadi (3-jadvalga qarang).

Keksalarda og'riq sindromini rivojlanish bosqichida patomorfologik o'zgarishlarga mos ravishda hosil bo'lgan son suyagi boshchasi nekrozi, kuzatuvimizdagi 60 ta suyak segmentlarining sagital tekislikda joylashganligi 4-jadvalda berilgan.

## 3 -jadval


### Frontal tekislikdagi son suyagi aseptik nekrozining joylashish darajasi, (n=70 va % da)

Nekroz sohasi	20-29	30-39	40-49	50-59	60 ≤	Soni	%
medial		1	2	3	2	8	11.5%
Paramedial	1	1	3	4	4	13	18.5%
Lateral	1	4	6	12	10	33	47%
Paralateral	-	1	-	8	7	16	23%
jami	2	7	11	27	23	70	100%

**Sagital tekislikdagi son suyagi aseptik nekrozining joylashish tahlili  
(n=60 va % da)**

Nekroz sohasi	20-29	30-39	40-49	50-59	60 ≤	Soni	%
Boylam usti	1	-	2	5	4	12	20%
Boylam osti	3	1	8	7	6	25	42%
sekvestr	-	2	3	10	8	23	38%
jami	4	3	13	22	18	60	100%

T1 tartibida MRT signali tezligi yuqori emas (50-60 m/soniya). T2 tartibida suyak nekrozi signallari tezligining ikki qismi farqlanadi (120-140 m/soniya) Bunda impulslar tezligining markaziy qismi T2 tartibida 50-60 m/soniyani tashkil qiladi (2-rasmga qarang).



**2-rasm. T2 tartibida suyak nekrozi signallari tezligining ikki qismi farqlanadi (120-140 m/soniya)**

T2 tartibdagi gialin qavati markaziy aylana qismida joylashgan past tezlikdagi bo'shliqlar mavjudligi aniqlanib, bu bo'shliqlar suyak to'qimalarining tog'ay qismiga yaqin oraliq masofada joylashganligi ko'rinadi. Yoshi keksa bemorlarning son boshchasi T2 tartibida MRT tekshiruvida sagital va aksial kesimlarda o'zgarishlar yaqqol aniqlangan. SSBAN MRT aniqlangan natijalar nekrozning rivojlanish bosqichiga mos keladi (3-rasmga qarang).






### 3-rasm. Vizual tekshiruv asosida makropreparatini solishtirma tahlili

Avaskulyar nekroz jarayonining makroskopik tekshiruvda son proksimal suyaklari atrofidagi yumshoq to'qimalar va suyak pardasidagi to'qimasi kuchli shishga uchraganligi, hujayra va tolali tuzilmalarining titilib, betartib joylashganligi, oraliq moddada vakuollashgan bo'shliqlar paydo bo'lganligi aniqlanadi. Ayniqsa oxirgi bosqichlarida son boshcha suyaklarida rivojlangan aseptik nekrozning, ya'ni aseptik nekroz o'choqlarining paydo bo'lish davrida ushbu holat kuzatiladiki, suyak to'qimasining qattiq va zich holdagi ustunlari ham nekrobiotik o'zgarishlar oqibatida parchalanib, fragmentatsiyalanib, har xil kattalikdagi sekvestrlar paydo bo'lganligi aniqlanadi. Ushbu sekvestr ko'rinishidagi qattiq suyak to'qimasi tarkibidagi osteotsit hujayralarning nobud bo'lganligi, bo'lakchalar periferik qismida kuchli darajada kalsinoz rivojlanganligi kuzatiladi. Sekvestr bo'laklari orasidagi suyakning asosiy moddasi to'liq holda nekrozlanib, strukturasi holatga kirganligi aniqlanadi. Buning tarkibida ham shish o'choqlari va kalsinozlar rivojlanganligi topiladi (4-rasmga qarang). Umuman olganda klinik anamnestik, asbob-uskunalarda tekshirish va laborator ma'lumotlari asosida qo'yilgan klinik tashxislarni tahlil qilish natijasida aniq bo'ldiki, olingan tahliliy ma'lumotlarimiz bemorlarni individual tashxislash va davolash algoritmini belgilab beradi. Tahlilimizda SSBANing o'lchamlari bo'yicha turlarining uchrash darajasi suyakning qaysi tomonga qarab nekrozlanishi bo'yicha barcha bosqichlari va ularning uchrash darajasini aniqladik. Solishtirma tashxislashda makroskopik va MRT tekshiruv usuli faqat yoshi keksalar uchun tadbiq etilmagan bo'lsada, biz patomorfologik belgilarni aniqlashda juda zarurligini xulosa qildik.



### 4-rasm, Tarkibida ham shish o'choqlari va kalsinozlar rivojlangan


Dissertatsiyaning « **Son suyak boshchasi aseptik nekrozi patogenetik angiogen omilining patomorfologik o'zgarishlari** » deb nomlangan to'rtinchi bobida son suyak boshchasining aseptik nekrozi sabablarini tushunish uchun, uning angioarxitektonikasini bilish kerak bo'ladi. Son suyagining aksariyat qismi va boshchasiga qon son arteriyasidan (1) keladi. Son arteriyadan son suyagining bo'yni va boshchasiga son suyagini aylanib o'tuvchi lateral (2) va medial (3) arteriyalar keladi. Ikkinchi tomondan, ya'ni son suyak boshchasining bog'lami (yumaloq bog'lam) tarkibidagi nisbatan mayda arteriya (4) ham son suyak boshchasini qon bilan ta'minlaydi (5-rasmga qarang) (Yamshikov O.N. va boshq., 2021). Ushbu arteriyalardan eng muhimi medial aylanib o'tuvchi arteriya hisoblanadi va bu arteriya noximon va yonbosh-bel mushaklari orasidan o'tadi va o'z yo'lida ko'p sonli mayda arteriolalar ajratadi. Undan ajralgan arteriolalardan ayrimlari son suyak boshchasiga kirib turadigan aylanadigan chuqurchani qon bilan ta'minlaydi. Chuqur joylashgan arteriola son suyak boshchasini qon bilan ta'minlaydi. Medial arteriyaning oxirgi tarmoqlari yuqori bo'yin arteriola deyilib, deyarli son suyak boshchasi epifizini qon bilan ta'minlaydi (Xisametdinova G.R., 2015). Ushbu arteriyalar orasida kollaterallar kamligidan har xil sabablarga ko'ra son suyak boshchasida ishemiya holati rivojlanishi va nekrozlanish kuzatilishi mumkin. Son suyak boshchasini qon bilan ta'minlaydigan yana bir arteriya bu – son suyak boshchasini aylanuvchi chuqurcha bilan bog'lab turadigan yumaloq boylam tarkibidagi arteriya hisoblanadi. Bulardan tashqari son suyak boshchasini medial va lateral arteriyalarning mayda tarmoqlari bo'lgan suyak ichi qon tomirlari orqali qon bilan ta'minlanadi (Redkov S.N. et al., 2009). Muhim faktlardan biri, bu – medial va lateral arteriyalarda birorta patologiya rivojlansa dastlab ularning tarmog'i bo'lgan suyak ichi arteriolalarda tromboz va ishemiya rivojlanishidan suyakda nekroz boshlanadi.



**5-rasm. Son suyak boshchasi va bo'ynining arteriyalari.**

Bir qator ilmiy adabiyotlar ma'lumotlari bo'yicha son suyak boshchasining aseptik nekrozining sababi ikki xil: 1) arterial qon tomirlarining mayda tarmoqlarida tromboz va ishemiya rivojlanishi suyak hujayralarining nekrozlanishiga, suyak to'qimasining parchalanishiga olib keladi. 2) suyak to'qimasida noma'lum sabablarga ko'ra moddalar almashinuvining buzilishi, suyakning tog'ay osti qismida suyak hujayralarining nekrozi va parchalanish, mikrosinushlar paydo bo'lishi oqibatidagi nekroz rivojlanishi. Ma'lumki, bu

